



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI Demografik holat

2022- yil yanvar-mart

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni

Navoiy viloyati doimiy aholisi soni 2022- yil 1- aprel holatiga 1 038,6 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 4,7 ming kishiga yoki 0,5 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 507,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,9 %), qishloq aholisi soni 531,0 ming kishini (51,1 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2022- yil yanvar-mart

- Aholi soni **4 771 kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **5 692 nafarni** tashkil etdi.
- **882 nafar** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **1 318 nafar nikoh** va **347 nafar ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Navoiy viloyati aholisining umumiy o'sishi (2022- yil yanvar-mart oylarida)




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, **2022- yil 1- aprel** holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumanida 206,7 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 19,9 %) va Qiziltepa tumanida 157,2 ming kishini yoki (15,1 %), aksincha eng kam aholi soni G'ozg'on shahrida 9,0 ming kishini yoki jami viloyat aholisining (0,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati **2021- yilning yanvar-martiga** nisbatan Karmana tumanida 103,1 % ni, Navoiy shahrida 102,8 % ni, G'ozg'on shahrida 102,3 % ni, Uchquduq va Xatirchi tumanlarida 102,1 % ni, Tomdi tumanida 102,0 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022- yil 1- aprel holatiga, ming kishi)




**Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi soni.
(2022- yil 1- aprel holatiga)**

	<i>Jami aholi</i>	<i>Erkaklar</i>	<i>Ayollar</i>	<i>Shahar aholisi</i>	<i>Qishloq aholisi</i>	<i>1 kv. km ga to'g'ri keladiganlar soni</i>
Viloyat bo'yicha:	1 038 628	526 415	512 213	507 566	531 062	9,3
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	151 682	76 108	75 574	151 682	-	3 034,0
Zarafshon	85 854	44 930	40 924	85 854	-	4 290,0
G'ozg'on	8 966	4 810	4 156	8 966	-	15,2
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	133 089	65 931	67 158	43 397	89 692	140,1
Konimex	36 898	19 439	17 459	16 849	20 049	4,0
Qiziltepa	157 177	79 477	77 700	49 308	107 869	71,8
Navbahor	117 169	59 437	57 732	16 650	100 519	74,6
Nurota	86 957	44 638	42 319	49 270	37 687	14,6
Tomdi	15 591	7 955	7 636	5 037	10 554	0,4
Uchquduq	38 572	19 041	19 531	33 837	4 735	0,8
Xatirchi	206 673	104 649	102 024	46 716	159 957	145,6

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022- yil 1- aprel holatiga aholining eng ko'p shahar joylaridagi ulushi viloyatning shahar aholisiga nisbatan Qiziltepa va Nurota tumanlarida 9,7 % ni, Xatirchi tumanida 9,2 % ni, Karmana tumanida 8,6 % ni va Uchquduq tumanida 6,7 % ni, aksincha eng kam shahar aholi sonining ulushi Konimex va Navbahor tumanlarida 3,3 % ni va Tomdi tumanida 1,0 % ni tashkil etdi.


**Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi sonining ulushi
(2022- yil 1- aprel holatiga, foizda)**



Aholining tabiiy harakati yanvar-mart holatiga


	2021- yil kishida	2022- yil kishida	o'sish, kamayish	2021- yil har ming kishiga	2022- yil har ming kishiga
<i>Tug'ilganlar</i>	4 857	5 692	835	19,4	22,3
<i>O'lganlar</i>	1 073	882	-191	4,3	3,5
<i>Tabiiy o'sish</i>	3 784	4 810	1 026	15,1	18,8
<i>Nikohlar</i>	1 516	1 318	-198	6,1	5,2
<i>Ajralishlar</i>	289	347	58	1,2	1,4

yanvar–mart holatiga aholining tabiiy harakati, birlikda



Navoiy viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni (yanvar-mart) yillar, ming kishi

Tug'ilish. 2022- yilning yanvar-mart oylarida 5 692 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,3 promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,9 promillega oshgan (2021- yilning yanvar-mart oylarida 19,4 promille bo'lgan).



Tug'ilganlar yanvar-mart holatiga, (kishida)


	2021- yil	2022- yil promilleda	2022- yil	2022- yil promilleda
Navoiy viloyati	4 857	19,4	5 692	22,3
Navoiy sh.	677	18,7	1 069	28,7
Zarafshon sh.	368	17,6	414	19,6
G'ozg'on sh.	35	16,1	24	10,9
Karmana t.	638	20,1	783	23,9
Konimex t.	184	20,6	149	16,4
Qiziltepa t.	648	17,0	760	19,6
Navbahor t.	532	18,8	543	18,8
Nurota t.	473	22,5	472	22,1
Tomdi t.	56	14,9	117	30,6
Uchquduq t.	187	20,1	228	24,0
Xatirchi t.	1 059	21,2	1 133	22,3

Vafot etganlar

2022- yilning yanvar-mart oylarida 882 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 3,5 promilleni tashkil etdi.


Asosiy o'lim sabablari bo'yicha

yanvar – mart



2022- yilning yanvar – mart oylarida 72 ta 1 yoshgacha go'daklar o'lim qayd etilgan.



Asosiy o'lim sabablari bo'yicha 1 yoshgacha vafot etganlar



Nikoh. 2022- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 1 318 nafar nikoh qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,2 promilleni tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega kamaygan (2021- yilning yanvar-mart oylarida 6,1 promille bo'lgan).




Tuzilgan nikohlar yanvar-mart holatiga, (kishida)



Nikohdan ajralishlar. 2022- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 347 kishi nikohdan ajralganligi qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,4 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega ko'paygan (2021- yilning yanvar-mart oylarida 1,2 promille bo'lgan).



Nikohdan ajralganlar yanvar-mart holatiga, (kishida)



MIGRATSIYA

2022- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2 345 kishini tashkil etgan bo'lib 1 000 aholiga nisbatan ko'chib kelganlar koeffitsiyenti 9,2 promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan minus 1,7 promillega kamaygan (2021- yilning yanvar-mart oylarida 10,9 promille bo'lgan).

2022- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni esa 2 384 kishini tashkil etgan bo'lib 1 000 aholiga nisbatan ko'chib ketganlar koeffitsiyenti 9,3 promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan minus 2,9 promillega kamaygan (2021- yilning yanvar-mart oylarida 12,2 promille bo'lgan).

Migratsiya saldosi minus 39 kishi bo'lib, 2021- yilning o'tgan shu davrida minus 313 kishi bo'lgan.



**2021- yil
yanvar-mart**

**2022- yil
yanvar-mart**

Ko'chib kelganlar

2 738

2 345

Ko'chib ketganlar

3 051


2 384

Migratsiya saldosi


-313

-39

Ko'chib kelganlar yanvar-mart holatiga, (kishida)



Ko'chib ketganlar yanvar-mart holatiga, (kishida)



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Tel.:(79) 223-07-41